

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



Ro'yxaqiga oling - № ADD-70230201-1.07

TARJIMANING LINGVOMADANIY ASPEKTLARI  
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar  
Ta'lif sohasi: 230 000 – Tillar

Mutaxassislik: 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, ligvistik tarjimashunoslik

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti  
instituti direktori:

  
*(imzo)*

X.V.Mirzaxmedova

Tarjimashunoslik, tilshunoslik va  
xalqaro jurnalistika oliy maktabi boshlig'i:

  
*(imzo)*

S.T.Mustafayeva

ARM boshlig'i:

  
*(imzo)*

M.Yuldasheva

Fan/modul kodi TLKA1206	O'quv yili 2024/2025	Semestr 2	YeCTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari	72	108	180

2.	<p><b>I. Fanning mazmuni:</b></p> <p><b>Fanning maqsadi:</b> magistrant-talabalarga tilda va diskursda o'z aksini topgan xalq madaniyati va uni taijimada ifodalanishi, lingvomadaniyatshunoslikning nazariy masalalari, til va madaniyatning o'zaro aloqasi va ta'siri bilan bog'liq jarayonlar, "til-madaniyat" haqidagi lingvistik ta'limalar, nutqiyl muomala, olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy birliklar va ularning tarjimasidagi o'ziga xos usullar haqida ma'lumot berishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy tushunchalari, maktablari, yo'naliishlari, metodlari haqida ma'lumot berish;</li> <li>- magistrantlarda tarjimaning lingvomadaniy aspektlari bo'yicha nazariy bilimlar hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;</li> <li>- muqobilsiz leksiqa, frazeologizmlar, o'xshatishlar, metaforalar, evfemizmlar va lakunalarning lingvomadaniy tahlili va ularni tarjimada berish usullari bilim berish;</li> <li>- tarjimashunoslikning til va madaniyat bilan bog'liq nazariy masalalariga ilmiy hamda integrativ yondashuvni shakllantirish;</li> <li>- lingvomadaniy birliklar tarjimalarini amalgalashish va tarjima jarayonlariga uslubiy yondashish ko'nikmalarini hosil qilish vazifalari nazarda tutiladi.</li> </ul> <p><b>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</b></p> <p>Mazkur fan sillabusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-martdagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 87-tonli buyrug'iga muvofiq, xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi University of Hong Kong (QS 28) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://www.cityu.edu.hk/catalogue/ug/202021/course/LT2321.pdf">https://www.cityu.edu.hk/catalogue/ug/202021/course/LT2321.pdf</a></p>
----	---

## **II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

### **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu. Til, madaniyat, antropologiya va lingvokulturologiya**

Til va madaniyat. Til – madaniyatning ko‘zgusi. Til – madaniyat tashuvchisi. Tilga “ichki” va “tashqi” jihatdan yondashish. Madaniy antropologiya va lingvokulturologiya. Antropologiya inson haqidagi fan. Fizik antropologiya va madaniy antropologiya.

#### **2-mavzu. Antroposentrik paradigma va uning lingvokulturologiyadagi o‘rni**

Tilshunoslikda “paradigma” tushunchasi. Tilshunoslikda paradigmalarning o‘zgarishi masalasi. Paradigmalarning qiyoziy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik turlari. Bilimlarning yangi antropotsentrik paradigmasi va uning lingvokulturologiyadagi o‘rni. Lingvokulturologiyaning boshqa fanlar orasidagi maqomi. Lingvokulturologiyaning etnolingvistika, sotsiolingvistika va etnopsixolingvistika bilan chambarchas bog‘liqligi.

#### **3-mavzu. Madaniyat va uning o‘rganilishi**

“Madaniyat” tushunchasi. Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuchi va qobiliyatlarining muayyan darajasi. Madaniyatshunoslikda madaniyatning o‘rganilishi. Madaniyatning o‘rganilishidagi turli nuqtayi nazarlar. Madaniyat va inson. Madaniyat va tamaddun.

#### **4-mavzu. Lingvokulturologiyaning vujudga kelishi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari**

Lingvokulturologiyaning vujudga kelishi. Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi. Lingvokulturologiyaning tavsifi. Lingvokulturologiyaning asosiy yo‘nalishlari. Lingvokulturologiya maktabları. Lingvokulturologiyaning predmeti. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti. Lingvokulturologiyaning maqsadi va vazifalari.

#### **5-mavzu. Muqobilsiz leksika va uni tarjimada berish yo‘llari**

“Muqobilsiz leksika” tushunchasi. Muqobilsiz leksika haqidagi qarashlar. Muqobilsiz leksika turlari. Muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sabablari. Muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sabablari haqidagi qarashlar. Muqobilsiz leksikani tarjima qilish usullari.

#### **6-mavzu. Frazeologizmlarning lingvomadaniy tablili va ularni tarjimada berish usullari**

Frazeologik birliklar haqida tushuncha. Frazeologizmlarga turli yondashuvlar. Frazeologizmlarning milliy-madaniy semantikasi. Frazeologizmlarni tarjimada berish usullari. To‘la ekvivalent frazeologizmlar vositasida tarjima qilish. Muqobil frazeologizmlar bilan tarjima qilish. Tasviriy usulda tarjima qilish. Kalka usulda tarjima qilish.

**7-mavzu. O‘xshatishlar va ularning tarjimasidagi o‘ziga xos jihatlar**

O‘xshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsuli. O‘xshatish va uning turlari. Erkin o‘xshatishlar. Turg‘un o‘xshatishlar. O‘xshatishlar tarjimasining o‘ziga xos jihatlari.

**8-mavzu. Turli lingvomadaniyatlardagi o‘xshatishlarning qiyosiy tahlili**

Turli lingvomadaniyatlardagi o‘xshatishlarning qiyosiy tahlili. Flora kodli o‘xshatishlar. Fauna kodli o‘xshatishlar. Inson tashqi ko‘rinishini tasvirlovchi o‘xshatishlar Inson xulq-atvorini tasvirlovchi o‘xshatishlar

**9-mavzu. Metafora va uning tarjimada ifodalanishi**

Metafora tildagi universal hodisa. Metafora obrazli-motivlashgan so‘z. Metaforalarning madaniyatdagi roli. Metaforalar tarjimasi.

**10-mavzu. Evfemizm va disfemizm**

Evfemizm hodisasi. Evfemizmlarda madaniy o‘xshashliklarning aks etishi. Evfemizmlarda madaniy farqlarning aks etishi. Disfemizm hodisasi.

**11-mavzu. Lakuna va uni tarjimada bartaraf etish yo‘llari**

“Lakuna” tushunchasi. Lakunalarning turlari. Ijtimoiy-madaniy lakunalar. Subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalar. Faoliyat-kommunikativ lakunalar. Matniy lakunalar. Madaniy makondagi lakunalar. Paralingvistik lakunalar. Lakunalarni tarjimada bartaraf etish yo‘llari.

**12-mavzu. Ramz – inson ruhiyatining tili**

Ramzlarning vujudga kelishi. Ramz – inson ruhiyatining tili. Ramz universal kategoriya. Ramzning belgilik xususiyati. Ramz, belgi va obraz. Turli lingvomadaniyat ramzlarining qiyosiy tahlili.

**13-mavzu. Milliy madaniyatning stereotiplari**

“Stereotip” tushunchasi. “Stereotip” tushunchasining turli fanlardagi talqini. Stereotip turlari. Ijtimoiy stereotiplar. Muloqot stereotiplari. Mental stereotiplar. Madaniy stereotiplar. Etnomadaniy stereotiplar. Stereotip madaniyat vakillarining tafakkuri va tili. Stereotip yuzaga kelishining sabablari.

**14-mavzu. Inson – milliy mentallik va til egasi**

Inson – milliy mentallik va til egasi. Inson – turli fanlarning tadqiqot obyekti. Til inson shaxsini aniqlashda muhim vositalardan biri.

**15-mavzu. Lisoniy shaxs**

Lisoniy shaxsni shakllantiruvchi omillar. Lisoniy shaxsnинг darajali modeli. Lisoniy shaxs mohiyatining tarkibiy qismlari: qadriyat, madaniyat, individuallik.

**16-mavzu. Jamiyat, madaniyat va tilda erkak-ayol ziddiyati**

Turkiy xalqlar madaniyatida “erkak” va “ayol” tushunchalari. Turkiy

xalqlarning mif va dostonlarida ayol obrazi. Turli madaniytalarda ayollarning mavqeyi.

### **17-mavzu. “Erkak – ayol” ziddiyati haqidagi qarashlar**

Borliqning antropomorf modeli. Xitoy falsafasida ikki qarama-qarshilik: “in” va “yan”. Maskulinizm va feminism.

### **18-mavzu. Gender – sotsio-madaniy kategoriya**

“Jins va “gender” tushunchalarining farqi. Genderolinguistika. Erkak va ayol nutqining ijtimoiy tabiatini. Nutqiy muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari.

#### **II.2. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

*“Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Antropologiya va lingvokulturologiya
2. Paradigmalarining qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentik turlari
3. Madaniyatning o‘rganilishidagi turli nuqtayi nazarlar
4. Madaniyat va tamaddun
5. Lingvokulturologiyaning asosiy yo‘nalishlari va maktablari
6. Til va madaniyatning o‘zarlo aloqasi masalasi
7. Muqobilsiz leksika va uni tarjima qilish usullari
8. Frazeologizmlarning milliy-madaniy semantikasi va ularni tarjimada berish usullari
9. O‘xshatishlarning qiyosiy tahlili va tarjimasining o‘ziga xos jihatlari
10. Metafora va uning tarjimasi
11. Evfemizm va disfemizm
12. Lakuna va uning tarjimada bartaraf etish yo‘llari
13. Turli lingvomadaniyat ramzlarining qiyosiy tahlili
14. Stereotip turlari
15. Inson – turli fanlarning tadqiqot obyekti
16. Lisoniy shaxs
17. “Erkak – ayol” ziddiyati
18. Turli madaniytalarda ayollarning mavqeyi

### **III. Mustaqil ta’lim\***

#### **III.1. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Talabalarni mustaqil ta’lim shaklini tashkil etishga qo‘yilgan talablar O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISga ilova qilish, shuningdek, qisman joriy, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.

“Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari” fanidan mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O’zbek va sharq tillaridagi turg‘un o‘xshatishlarning lingvomadaniy tahlili
2. Sharq tillaridagi matnlarining lingvokulturologik tahlili
3. Turli lingvomadaniyatlarda olam lisoniy manzarasining aks etishi
4. O’zbek va boshqa madaniyat vakillarining dunyo tasvirida konseptlarning qiyosiy tahlili (magistrantlarning xohishiga ko’ra)
5. Turli madaniyatlardagi nutq etiketi – lingvokulturologiyaning muhim tarkibiy qismi
6. Lingvokulturologik asosiy tushunchalar lug‘atini tuzish
7. O’zbek tilshunosligidagi lingvokulturologik tadqiqotlar
8. Sharq lingvomadaniyatida raqamlarning ramziy ma’nolari
9. Sharq lingvomadaniyatida ranglarning ramziy ma’nolari
10. Stereotip va madaniyatlararo muloqot
11. O’rganilayotgan til frazeologizmlarining lingvomadaniy tahlili
12. Insonning til va madaniyatdagi o’rnini tarjimada aks etishi
13. Genderolingvistikada amalga oshirilgan tadqiqotlar
14. O’rganilayotgan tilda gender masalasi
15. Sharq lingvomadaniyatida evfemizmning ifodalanishi
16. Sharq lingvomadaniyatida stereotiplarning o’ziga xos xususiyatlari
17. Sharq xalqlari mentaliteti
18. O’rganilayotgan sharq tilidagi realiyalarni o’zbek tiliga tarjima qilish yo’llari

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllarda topshiradi:

- darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarning mavzularini o’rganib chiqish;
- maxsus ilmiy adabiyot asosida mavzular ustida ishlash;
- o‘quv-ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan bog‘liq mavzularni chuqur o’rganish;
- ta’lim olishning faol va muammoli usullari qo‘llangan o‘quv mashqlarni bajarish;
- taqdim etilayotgan mavzu bo‘yicha referat, esse, maqola va testlar tayyorlash;
- mavzu bo‘yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash;
- mavzular bo‘yicha adabiyotlar sharhi.

	<p><b>III.2. “Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari” fanidan kurs ishlarining namunaviy mavzulari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Turli lingvomadaniyatlardagi metaforalarning qiyosiy tahlili</li> <li>2. Madaniyatlararo muloqotda noverbal vositalar</li> <li>3. Turli madaniyatlardagi etnografik tabularning qiyosiy tahlili</li> <li>4. Etnomadaniy stereotipining o‘ziga xos jihatlari</li> <li>5. Erkak va ayol nutqidagi tafovutlar</li> <li>6. O‘rganilayotgan sharq tilidagi realiyalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish</li> <li>7. Turli lingvomadaniyatlardagi frazeologizmlarning qiyosiy tahlili</li> <li>8. Lisoniy geshtaltlar nazariyasi</li> <li>9. Badiiy matnlarning lingvokulturologik tahlili</li> <li>10. Milliy madaniyat va uning turlari</li> </ol> <p>* Izoh: Mustaqil ta’lim va kurs ishi mavzulari fan doirasida o‘zgarishi mumkin.</p>
3.	<p><b>IV. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>“<i>Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari</i>” fanini o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bilimlarning yangi antropotsentrik paradigmasi;</li> <li>- lingvokulturologiyaning asosiy yo‘nalishlari;</li> <li>- muqobilsiz leksika;</li> <li>- tilning paremiologik fondi;</li> <li>- tilning frazeologik fondi;</li> <li>- o‘xshatishlar va ularning turlari;</li> <li>- evfemizmlar va disfemizmlar;</li> <li>- milliy stereotiplar;</li> <li>- tilning metaforalari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;</li> <li>- lingvomadaniyatshunoslikning nazariy masalalarini;</li> <li>- nutqiy muomala va nutq etiketini;</li> <li>- til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini;</li> <li>- “til-madaniyat” haqidagi lingvistik ta’limotlarni;</li> <li>- olamning lisoniy manzarasini bilishi va ulardan foydalana olishi;</li> <li>bular bilan bir qatorda magistr: <ul style="list-style-type: none"> <li>- matnlarni lingvomadaniy tahlil qila olish;</li> <li>- linnovmadaniy birliklarni tarjima qilish;</li> <li>- muomalaning axloqiy me’yorlarini tarjimada aks ettira bilish;</li> <li>- madaniy matnlar bilan ishslash metodlarini qo‘llay olish;</li> <li>- til faktlarini tahlil qilishda integrativ metodlarni qo‘llay bilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;</li> <li>- nutqda madaniy ahamiyatga molik birliklarni topa olish;</li> <li>- lingvomadaniy sharhlarga chegaradosh fanlardan ma’lumotlar kiritish;</li> </ul> </li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>– o‘zga til lingvomadaniy jamoasidagi qadriyatga molik o‘rirlarni belgilay olish;</li> <li>– tillararo va madaniyatlararo yuz berishi mumkin bo‘lgan senariylar modelini ishlab chiqish;</li> <li>– o‘zbek va turli madaniyatlarga xos lingvomadaniy birliklarni qiyosiy tadqiq etish malakalariga ega bo‘lishi kerak.</li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>V. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• videomahsulotlardan foyadlanish;</li> <li>• grammatik-tarjima metodi;</li> <li>• audio-lingval metod;</li> <li>• audiovizual metod;</li> <li>• namoyish qilish (demonstratsiya) metodi;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• rolli o‘yinlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• individual loyihibar;</li> <li>• jamoaviy loyihibar;</li> <li>• organayzer (Klaster, Baliq skeleti, Ajurli arra, FSMU, Bumerang, Insert, BBXB)lar;</li> <li>• infografikalar yaratish va boshqalar.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, til hodisalari, tilshunoslik maktablari, tilshunos olimlar haqida mustaqil mushohada yuritish, xususan, har bir seminar uchun:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• keys stadi metodi doirasida darslarda faol ishtirot etish;</li> <li>• shaxsiy mulohazalarни yozma shaklda bayon qilish;</li> <li>• berilgan mavzu yuzasidan taqdimot tayyorlash;</li> <li>• o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida test tuzish;</li> <li>• amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha konsept daftarlari yuritish (<i>amaliy mashg‘ulot mavzulari konsepti, amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha adabiyotlar sharhi</i>) shuningdek, joriy, oraliq nazora, mustaqil ta’lim shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ish yoki testni topshirish.</li> </ul>
7.	<p style="text-align: center;"><b>VII. ASOSIY VA QO‘SHIMChA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. – Toshkent: TDSHI, 2017.</li> <li>2. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. Darslik. –Toshkent: “BOOKMANY PRINT”, 2022.</li> </ol>

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. –Toshkent: O'zbekiston, 2024.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М.: «Академия», 2001.
5. Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.IX. –Seoul, 2004. –Б. 48-60.
6. Usmanova Sh. Lakuna va uni tarjimada bartaraf etish yo'llari // Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. –Toshkent: TDSHI, 2016. 37-43.
7. Усманова Ш. Этномаданий стереотипларнинг лингвомаданий таҳлили // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VI. –Тошкент: “Akademnashr”, 2015. –Б. 120-122.

### **Scopusdan maqolalar**

1. Shoiria Usmanova, Shohistakhon Shamsieva, Nargiza Ismatullayeva (2023). *Scientific Research On Sino-Uzbek Contrastive Linguistics Carried Out In Recent Years*. Journal of Namibian Studies, 33 S3 (2023): 5208-5227. ISSN: 2197-5523 (online)  
<https://namibian-studies.com/index.php/JNS/article/view/4433>
2. Shoiria Rustamovna Usmanova, Nargiza Rasuljanovna Ismatullayeva. *Expression Of Lacunas In Comparative Study Of Kinship Terms In Chinese And Uzbek Languages*. Solid State Technology. Volume: 63 Issue: 6 Publication Year: 2020. Pp. 4974-4985.  
<http://www.solidstatetechnology.us/index.php/JSST/article/view/3910>

### **Axborot manbalar**

1. <http://www.zivo.net>
2. <https://www.jstor.org/>
3. <https://tadqiqot.uz>
4. <http://www.azquotes.com/quote/702521>
5. <http://www.ekSION.net/turk-mitolojisi-ve-tanricalar>
6. <http://www.bilinmeyenturktarishi.com>
7. <http://newsgroups.derkelier.com>

7. Fanning o'quv dasturi Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2024-yil "29" 08 dagi 1 -sonli bayonomasi bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024 yil "29" 08 dagi -1 -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

	<b>Fan/modul uchun ma'sul:</b>
8.	<b>1. Usmanova Sh.R.</b> – TDShU Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliv maktabi professori, filologiya fanlari doktori
9.	<b>Taqrizchilar:</b> <b>1. Xudoyberganova D.</b> – O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori <b>2. Hamidov X.</b> – Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jumalistika oliv maktabi professori, filologiya fanlari doktori

